

## Iqtidorli talabalar bilan uchrashuv



27.01.2023

# Iqtidorli talabalar bilan uchrashuv

Bugun "Yer resurslarini boshqarish" fakultetining iqtidorli va iste'dodli talabalari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Ushbu tadbirni maqsadi, iqtidorli va intiluvchan yoshlarni Prezident va nomdor stipendiyalar hamda turli tanlovlardan tanishtirish, yoshlarda bu yo'nalishda motivatsiya uyg'otishdan iboratdir. Tadbirni fakultet dekani Sh.Narbaev hamda yoshlardan ishlash bo'yicha dekan muovini H.Eshova va fakultet tyutorlari tashabbusi bilan tashkil etildi. Tadbirda Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish bo'limi boshlig'i Zahiriddin Xolmatov o'z ma'ruzalari bilan ishtiroy etdi.



Fakultetimizda bugungi kunda iqtidoli talabalarimiz soni kengayib bormoqda. Iqtidorli talabalarimiz qilgan ishlari to'g'risida qizqacha ma'lumot berib o'tmoqchiman. Iqtidorli ijodkor tashabbuskor talabalarimiz uchun fakultetda alohida 407 - xona ajratilgan. Talabalarimiz fakultetda turli tadbirlar, zakovat, debat, quvnoqlar va zukkolar bundan tashqari har bir bayramlarda faol ishtiroy etib keladilar. Bugungi o'tkazilgan tadbir ham talaba-yoshlarni manzur bo'ldi deb o'ylaymiz. Iqtidorli shijoatli yoshlarni qaysidir ma'noda ma'ruzachilarimiz motivatsiya uyg'otishdi deb o'ylaymiz.

**YeRB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti**